



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

DRAMATIK DIALOGDA REPLIKA TUSHUNCHASI VA UNING LINGVISTIK TABIATI

Ikromova Gulhida

Fargʻona davlat universiteti, katta oʻqituvchi (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada dramatik matnning lingvistik xususiyatlari replika tushunchasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda monolog, dialog va remarka kabi tarkibiy birliklarning oʻzaro munosabati yoritilib, replikaning dialogik nutqdagi markaziy oʻrni asoslab beriladi. Replika sintaktik, semantik, pragmatik hamda diskursiv birlik sifatida talqin qilinib, uning kommunikativ vazifalari va dramatik harakatni shakllantirishdagi roli ochib beriladi. Shuningdek, nutqiy aktlar nazariyasi doirasida stimullovchi va reaktiv replikalarning ilmiy tavsifi beriladi. Tadqiqot natijalari dramatik matn lingvistikasi va dialog tahlilini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar. dramatik matn, replika, dialogik nutq, monolog, remarka, nutqiy akt, stimullovchi replika, reaktiv replika, pragmatika, diskurs tahlili, kommunikativ birlik, drama lingvistikasi.

ПОНЯТИЕ РЕПЛИКИ В ДРАМАТИЧЕСКОМ ДИАЛОГЕ И ЕЁ ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА

Икромова Гулхид

Ферганский государственный университет, старший преподаватель (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические особенности драматического текста на основе понятия реплики. В исследовании рассматривается взаимосвязь структурных элементов — монолога, диалога и ремарки, обосновывается центральная роль реплики в диалогической речи. Реплика интерпретируется как синтаксическая, семантическая, прагматическая и дискурсивная единица, раскрываются её коммуникативные функции и роль в формировании драматического действия. Кроме того, в рамках теории речевых актов даётся научная характеристика стимулирующих и реактивных реплик. Результаты исследования способствуют развитию лингвистики драматического текста и анализа диалога.

Ключевые слова: драматический текст, реплика, диалогическая речь, монолог, ремарка, речевой акт, стимулирующая реплика, реактивная реплика, прагматика, дискурсивный анализ, коммуникативная единица, лингвистика драмы.

THE CONCEPT OF REPLICA IN DRAMATIC DIALOGUE AND ITS LINGUISTIC NATURE

Gulhida Ikromova

Fergana State University, Senior Lecturer (PhD)

Abstract

This article analyzes the linguistic features of a dramatic text based on the concept of the replica. The study examines the interrelation of structural elements such as monologue, dialogue, and remark, substantiating the central role of the replica in dialogic speech. The replica is interpreted as a syntactic, semantic, pragmatic, and discursive unit, and its communicative

functions and role in shaping dramatic action are revealed. In addition, the scientific description of stimulus and reactive replicas is presented within the framework of speech act theory. The results of the study contribute to the development of dramatic text linguistics and dialogue analysis.

Keywords: dramatic text, replica, dialogic speech, monologue, remark, speech act, stimulus replica, reactive replica, pragmatics, discourse analysis, communicative unit, drama linguistics.

Drama matnini lingvistik nuqtayi nazardan o'rganishda, avvalo, uning tarkibiy elementlari bo'lmish monolog, dialog, replika va remarka kabi unsurlarning o'zaro munosabatini aniqlab olish muhimdir. Mazkur birliklar orasida muloqotga yo'naltirilgan eng asosiy birlik replika bo'lib, u dramatik matnning mazmuniy rivojida, personajlar xarakterini ochishda, ularning ichki holati va psixologik kayfiyatini namoyon qilishda, shuningdek, konfliktning shakllanishi va keskinlashuvida asosiy birlik hisoblanadi. Replika dialogning tarkibiy qismi sifatida turli ilmiy talqinlarga ega bo'lib, u muloqot strukturasi belgilaydigan, suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni namoyon qiladigan va dramatik harakatni oldinga siljitadigan vosita sifatida tavsiflanadi. Teatrshunos P.Pavi ta'kidlaganidek, sahnadagi har bir so'z "oddiy nutq emas, balki harakatning o'zi" [1, 66] sifatida xizmat qiladi, ya'ni u personaj faolligini, niyatini va ichki dunyosini bevosita aks ettiradigan dramatik hodisa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Drama o'z tabiatiga ko'ra dialogik nutqqa asoslangan bo'lsa-da, dramatik matn faqat dialog bilan chegaralanmaydi. Bu xususda, Yevropa tilshunosligi vakili Berkner quyidagilarni ta'kidlaydi: "Personajlar nutqi ikki asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi: dialog – ikki yoki undan ortiq qahramon o'rtasida qisqa yoki bir oz uzun replikalarning tez almashinuvidan iborat muloqot shakli; monolog –qahramonning sahnada yolg'iz qolganda aytadigan, yaxlit mazmunga ega bo'lgan nisbatan uzun bayonidir". [2, 128] Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bu ikki nutq shakli "ham drammatizmni harakatlantiruvchi kuch, ham personaj xarakterini namoyon qiluvchi asosiy vositasidir".

Tilshunoslikda replika tushunchasi turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilib, uning mazmuni bir nechta ilmiy talqinda izohlanadi. Avvalo, replika sintaktik birlik sifatida talqin qilinadi, ya'ni ushbu birlik gap yoki gaplar majmuyi ko'rinishida shakllanadigan nutqiy bo'lak bo'lib, bunday ta'rif replikaning grammatik tuzilishi, sintaktik birlik sifatidagi mohiyati va konstruktiv xususiyatlarini aniqlashga imkon yaratadi. Ikkinchidan, replika semantik birlik sifatida tavsiflanib, mazkur jarayonda replika mazmun jihatdan yakunlangan, ma'lum bir g'oya, xabar yoki mazmunni yetkazuvchi komponent sifatida o'rganiladi. [3, 240] Uchinchidan, replika pragmatik birlik sifatida talqin etiladi, chunki u muayyan kommunikativ maqsadni – savol berish, buyurish, inkor qilish, tasdiqlash yoki baholash kabi nutqiy aktlarni ifodalab keladi. [4, 312] Bundan tashqari, replikani diskursiv birlik sifatida tahlil qilish zarur, chunki replika faqat bir martalik nutq hodisasi sifatida emas, balki dialogning o'zaro bog'langan, ketma-ketlikka asoslangan diskursiv birligi sanaladi. M.N.Kojina ta'kidlaganidek, dialogik nutqning har bir elementi boshqa elementlar bilan uzviy aloqada bo'ladi va aynan shu aloqadorlik personajlararo kommunikativ strategiyaning shakllanishini belgilaydi. [5, 180] Shunday ekan, replika drama matnida alohida mustaqil birlik sifatida emas, balki kontekstual bog'lanish, muloqotning umumiy oqimi, sahnadagi vaziyat va personajlararo munosabatlar doirasida o'rganiladi.

Drama tilini o'rganishda replikaning uslubiy jihatlarini ham tadqiq etish zarur hisoblanadi. V.A.Kuxarenko ta'kidlaganidek, matnning stilistik talqini nafaqat personaj nutqining individual xususiyatlarini aniqlashga, balki uning ijtimoiy mavqeyi, madaniy mansubligi hamda psixologik holatini belgilashga imkon beradi. [6, 215]

Tilshunoslikda replikaning lingvistik tadqiqi masalasi tarixan nutqiy aktlar nazariyasi bilan bevosita bog'liq holda shakllangan. J.Ostin tomonidan taklif qilingan nutqiy aktlar

nazariyasida lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlar farqlangan bo'lib, replikaning ayni shu uch nutq aktining uyg'unlashuvini namoyon qiladigan hodisa ekanligi alohida ta'kidlangan. [7, 56] J.Searle esa Ostin g'oyalarini davom ettirib, illokutsion aktlarning batafsil tasnifini yaratgan va ularni assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ turlarga ajratgan. [8, 77] Shu asosda, har bir replika nafaqat semantik shakl, balki pragmatik maqsad bilan chambarchas bog'langan murakkab nutqiy birlik sifatida baholanadi, ya'ni u ma'lum bir ma'noni ifodalaydi, shu bilan birga, kommunikativ vazifani ham bajarib, tinglovchiga ta'sir o'tkazadi.

Natijalar va muhokama. Jahon tilshunosligida replikaning lisoniy tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarda ushbu nutq birliklari stimullovchi va reaktiv replika kabi 2 turga ajratilgan bo'lib, bu tasnif dialogik nutqning ichki tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [9, 214] Dialogik nutqni o'rganish tarixida stimullovchi va reaktiv replikaning nazariy talqinlari dunyo tilshunosligining turli ilmiy maktablari va olimlari tomonidan izchil tarzda ishlab chiqilgan. Nutqiy aktlar nazariyasining asoschisi J.Ostin har qanday gapning lokutsion, illokutsion va perlokutsion kuchga ega ekanini ta'kidlab, replika ayni shu uch qatlamning uyg'unlashuvini ifodalovchi birlik ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, stimullovchi replika illokutsion kuch orqali suhbatdoshni muayyan harakatga undovchi, ya'ni savol, buyruq, taklif kabi kommunikativ niyatlarni bajaruvchi birlik sifatida izohlanadi, reaktiv replika esa ushbu undovchi harakatga mos javobni ifodalab, suhbatning mantiqiy davomiyligini ta'minlovchi birlik sifatida talqin qilinadi.

S.Levinson stimullovchi replikani suhbatni rivojlantiruvchi, muloqot oqimini yo'naltiruvchi va suhbat ishtirokchilarining ijtimoiy rolini belgilovchi vosita sifatida izohlaydi. Reaktiv replika esa suhbatning koneyzivligi, ya'ni mantiqiy bog'liqligini ta'minlovchi birlik sifatida baholanadi. [10, 214]

Sotsiopragmatikaning yetakchi olimlari E.Goffman, P.Broun hamda S.Levinsonlar stimullovchi replikani ko'pincha suhbatdoshning "yuz"iga bevosita tahdid qiluvchi nutqiy akt sifatida talqin qiladilar, chunki savol, buyruq yoki talab shaklida ifodalangan stimullovchi replika suhbatdoshni muayyan ijtimoiy yoki kommunikativ pozitsiyani egallashga majbur qiladi va shu orqali uning ijtimoiy nufuziga ma'lum darajada bosim o'tkazadi. [11, 65] Reaktiv replika esa ushbu tahdidga javob beruvchi, ijtimoiy muvozanatni tiklovchi yoki muloqotni yumshatuvchi strategik birlik sifatida baholanadi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, agar reaktiv javob tez, aniq va ijobiy shaklda bildirilsa, u afzal javob deb hisoblanadi. Aksincha, agar javob kechiktirilgan hamda sintaktik jihatdan ko'p predikatli konstruksiyalar bilan shakllangan yoki rad etish shaklida ifodalangan bo'lsa, u afzal bo'lmagan javob sifatida izohlanadi. [12, 355]

M.Pfister va R.Yakobson tadqiqotlarida stimullovchi replika lingvopoetik jihatdan tadqiq etilgan bo'lib, ushbu replika turi dramatik matndagi sahna harakatini boshlovchi, syujetni harakatlantiruvchi yoki konfliktni keskinlashtiruvchi estetik vosita sifatida talqin qilingan. Reaktiv replika esa, aksincha, dramatik kuchlanishni yumshatuvchi, konfliktni yechishga yordam beruvchi yoki sahnaviy dinamikani muvozanatlashtiruvchi birlik sifatida baholangan. [13, 98] Shu sababli, dramatik matn tahlili jarayonida stimullovchi va reaktiv replikalar faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki sahna nutqining estetik ritmini belgilovchi, dramatik effekt yaratuvchi vosita sifatida ko'riladi.

Xulosa. Dramatik matnni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish uning tarkibiy birliklarini, ayniqsa replikaning kommunikativ va struktur xususiyatlarini chuqur tahlil etishni talab qiladi. Replikaning dialogik nutqdagi markaziy o'rni hamda uning sintaktik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlari dramatik harakatni shakllantirishda muhim vosita ekanini namoyon etadi. Stimullovchi va reaktiv replikalar dialog rivojini ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'lib, personajlar o'rtasidagi munosabatlar va kommunikativ strategiyalarni ochib berishga xizmat qiladi. Shunday qilib, replika dramatik matnning mazmuniy va funksional yaxlitligini ta'minlovchi ko'p qirrali birlik sifatida drama lingvistikasi doirasida muhim nazariy

va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Словарь театра. – Москва: Прогресс, 1991.
2. Беркнер Л. И. Язык драматургии. – Москва: Просвещение, 1982.
3. Гак В. Г. Языковые преобразования. – Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1998.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 2001.
5. Кожина М. Н. Стилистика русского языка. – Москва: Флинта, 2003.
6. Кухаренко В. А. Интерпретация текста. – Москва: Просвещение, 2010.
7. Austin J. L. How to Do Things with Words . – Oxford: Clarendon Press, 1962.
8. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language . – Cambridge: CUP, 1969.
9. Pfister M. Das Drama: Theorie und Analyse . – München: Fink, 1977.
10. Levinson S. C. Pragmatics. – Cambridge: CUP, 1983.
11. Brown P.; Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: CUP, 1987.
12. Pfister M. The Theory and Analysis of Drama. – Cambridge: CUP, 1988. – P. 52; Jakobson R. Linguistics and Poetics // Sebeok, T. A. (ed.). Style in Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1960.
13. Goffman E. Interaction Ritual: Essays on Face to Face Behavior. – New York: Anchor Books, 1967.